



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI




№8
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 352 sahifa,
1-avgust, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirli

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori modeli: tizimli boshqaruv yondashuvi asosida shakllanishi.....	14
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Maraimova Muxtabar Pulatovna	
O'smirlardagi nevroz holatining psixologik xususiyatlari.....	20
Abduraximov Doniyor Abdusaid o'g'li	
Ta'lim siyosati va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi: xalqaro tajriba va o'zbekistonda amaliyot taqqoslamasi.....	25
Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning hozirgi holati va o'ziga xosligi	30
Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi	
Ta'lim sifatini oshirishda "Barkamol avlod" bolalar maktablarining zarurati va ahamiyati	33
Eshmuminova Oybarchin Botirovna	
Bolalarda nutq kamchiliklari: etiologiya, rivojlanish dinamikasi va erta aralashuv	39
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitobxonlikka o'rgatish usullari	44
Maydonova Saboxat Sadulloyevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik vositasida badiiy adabiyot namunalari qiziqishni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari.....	48
Mingbayeva Barno Ubaydullayevna	
Pedagogical Characteristics in Enhancing Speaking Skills of Esp Learners in English Language Classes Through Digital Technologies.....	52
Pardayeva Zulaykho Yusubjonovna	
Nutq buzishlarida uchraydigan idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari	55
Ruziyeva Guzal Shuxrat qizi	
"Biologik savodxonlik" tushunchasi zamonaviy ta'lim paradigmasi kontekstida	59
Umaraliyeva Mamura Tashxodjayevna	
O'qituvchi faoliyatida kasbiy madaniyatning o'rni	65
Umarova Feruzabonu Bobir qizi	
Gamifikatsiyalangan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining 11–12 yoshli o'quvchilarda emotsional barqarorlikka amaliy ta'siri.....	68
Tojiyev Baxriddin Baxtiyorovich	
O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari	72
Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li	
Media va axborot savodxonligi 21-asr pedagoglarning asosiy kompetensiyasi sifatida.....	76
Boypolvonov Barot Djonqobulovich	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini takomillashtirishning lingvistik va lingvometodik talqini.....	81
Ismoilova Zarnigor Raximjon qizi	
O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari	86
Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li	
Pedagogik faoliyatda stress namoyon bo'lishiga ijtimoiy omillarning ta'siri	90
Jumanova Ug'loy Sodiqjonovna	
Oliy ta'lim muassasalarida nomutaxassislik yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitishni takomillashtirish.....	96
Koshayeva Sansabila Kamiljanovna	
Ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishda xalqaro tajribalar va ta'lim jarayonining o'rni.....	100
Mamajonova Fotimaxon O'ktamovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati	105
Murodova Madina Karim qizi	
Elektrotexnika va elektronika fanini o'qitishning zamonaviy metodlari	108
Ortiqov Mironshoh Sodiqovich	



Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda Blended learning texnologiyasini O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga tatbiq etish.....	110
Pakirdinova Sharofat Abdumutaljonovna	
O'zbekistonda ta'lim sohasi bo'yicha strategik dasturlarni ishlab chiqish istiqbollari.....	115
Quronboyeva Mavluda Bahodirovna	
Xalqaro baholash dasturlari va neyropedagogika	120
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
6-sinf o'quvchilarida matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish metodikasi	123
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi	
Talabalarda pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati	128
Yusupov Ulug'bek Kadirovich	
Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchi ma'naviy kamolotini ta'minlashda motivatsiya uyg'otish texnologiyalarini takomillashtirish	132
F. Zaynabuddinov	
Развитие поликультурной компетентности студентов в образовательной среде вуза	135
Киреева Эльвина Фларитовна	
Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda pedagogik xususiyatlar	140
Sanayev Gayrat Shermuxamedovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalar muloqot madaniyatini tarbiyalashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	144
Boybo'riyeva Saodat O'ralovna	
Kattalar ta'limi texnologiyasi: muammolar, yondashuvlar va rivojlanish yo'nalishlari	148
Davletova A.	
Yangi O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirishning huquqiy asoslari	152
G'aniyeva Gulrux Tavakkaljon qizi	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish	156
Madmarova Gulchexra Qodirovna	
O'lkashunoslik materiallarining oliy ta'lim jarayonida tarbiyaviy salohiyatini ochib berish	160
Mamajonov Mo'minjon	
Muhandislik grafikasi darslarida o'quv faoliyatining shaxsga yo'naltirilgan innovatsion modeli	165
Mamasidikova Gulnora Muhammad qizi	
Sun'iy intellektga asoslangan ta'limiy resurslarning pedagogik imkoniyatlari.....	169
Muhiddinov Muhiddin Nuriddin o'g'li	
Ijod maktablari o'quvchilarining badiiy-ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol metodlarning ahamiyati.....	173
Nurmatova Shohistaxon Muhammadjonovna	
Voleybolchi qizlarni tayyorlashning differensial vositalaridan foydalanish zarurligini, ularning o'yin amplusini hisobga olgan holda aniqlash usullari	178
Odilova Feruzaxon Valijon qizi	
PIRLS baholash tizimini qo'llash vositasida mustaqil o'qishga o'rgatishda IMEN texnologiyalaridan foydalanish.....	184
Olimjonova O'g'ilxon Abdurasul qizi	
Yoshlar o'rtasida internet qaramligi va ijtimoiy izolyatsiya zamonaviy Maugli sindromining klinik ko'rinishlari	188
Polvanov Rasulbek Baxtiyarovich	
Boshlang'ich maktabda o'zbek tili darslarida differensial ta'limdan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari	192
Rasulova Nozigul Abdivahid qizi	
Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini takomillashtirish	196
Sharfova Nilufar Ilhom qizi	
Xalqaro baholash dasturlari asosida ta'lim samaradorligini oshirishning pedagogik shart-sharoitlari (PIRLS misolida).....	200
Tuxtasinova Munira Ibragimovna	
Fransuz tili darslarida tabiatshunoslik atamalarini boshlang'ich sinflarda shakllantirish va o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari.....	204
Umarova Madinabonu Bahodir qizi	

O'smir psixologik salomatligini barqarorlashtirishda art-terapiyadan foydalanishning imkoniyatlari	208
<i>Yusupxodjayeva Umida Baxodir qizi</i>	
Nofillologlarni (filolog bo'lmaganlarni) kasbiy aloqa madaniyatiga o'rgatish maqsadida zamonaviy ingliz tilining lingvometodik tahlili.....	214
<i>Zarina Itolmasova</i>	
Forsayt va qaror qabul qilishni bog'lovchi kognitiv komponentlar.....	219
<i>Hasanova Sumanbar Hamroqulovna</i>	
Разработка и внедрение виртуальных лабораторных работ по биохимии для студентов фармацевтических факультетов.....	222
<i>Мамадалиева Зарина</i>	
Abduqodir Shakuriyning ta'lim va tarbiya haqidagi umumiy qarash va g'oyalari: chuqur tahlil	226
<i>Ashurova Dilrabo Isroil qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish tizimi ..	230
<i>Jakbarova Zarifaxon Solijon qizi</i>	
Badiiy-estetik qobiliyat tuzilmasi va uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar	233
<i>G. S. Kaxarova</i>	
Umumta'lim maktablarida informatika o'qitish asosida ta'limni raqamlashtirishning metodologik asoslari...	236
<i>Mamajanov Rakhmatilla Yakubjanovich</i>	
Shaxsda ma'naviy intellektni rivojlanishiga qadriyatlar yo'nalganligining ta'siri.....	240
<i>Mirxoliqova Charos Xabibullayevna</i>	
O'qituvchilarning sun'iy intellekt bo'yicha kompetentligini rivojlantirishda metodik yondashuv	244
<i>Najmetdinova Nargiza Sayfetdinovna</i>	
Ismlarning ma'noliligi va ularni o'qitishda lingvopedagogik yondashuvlar	252
<i>Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich</i>	
Fitnes-aerobika mashqlaridan foydalangan holda sog'lomlashtirish mashg'ulotlari uslubiyati.....	258
<i>Shaxriddinova Laylo Nurxonovna</i>	
Raqamli ta'lim texnologiyalarining didaktik va "learning analytics"ning nazariy asoslari	262
<i>Sulaymanov Zulqaynar Rajabali o'g'li</i>	
Esse yozishni o'rgatishda zamonaviy metodlar.....	268
<i>Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi</i>	
Iqtisodiy matnlar tarjimasini o'rgatishda raqamli simulyatsiya va virtual reallik (VR) texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari.....	272
<i>Xujanazarova Nozima Omonjonovna</i>	
Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ilmiy metodologik asoslari	275
<i>Axmedov Nodir Sadir o'g'li</i>	
Talaba-yoshlarda qo'shiq ijrochilik san'atini shakllantirishning zamonaviy pedagogik xususiyatlari: ta'lim islohotlari kontekstida yondashuv.....	279
<i>Begisbay Temirbayev</i>	
Xorijiy davlatlarda biologiya o'qituvchilarini tayyorlash tajribasi va uni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari.....	283
<i>Hayitov Abdirasul Eshdavlatovich</i>	
Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalariga umumiy fizika kursini o'qitishda virtual laboratoriyalarning ahamiyati.....	286
<i>Abdurakibov Akmal Abdugaparovich</i>	
Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining gapirish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishda yangi – "instruksional texnologiya" va sun'iy intellektga tayanib o'qitish metodologiyasi.....	290
<i>Abrorxo'ja Muminxo'jayev Muksumxodjayevich</i>	
Jaloliddin Rumiy fikrlarining hozirgi yoshlarga ta'siri	296
<i>Allayarov Doniyor Islom o'g'li</i>	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.....	298
<i>Aygul Aralbayevna Urazimbetova</i>	
Sud psixologik ekspertizasida travmatik tajriba (PTSD) fonida emotsional reaksiya va ko'rsatma sifati o'rtasidagi bog'liqlik.....	301
<i>Dehqonboyev Shohjahon Oybek o'g'li</i>	
Boshlang'ich ta'limda 4 "K" kompetensiyalarini rivojlantirishdagi muhim dolzarbliklar	307
<i>Idiyeva Gulchehra Izomovna</i>	



Bikaryer oilalarda gender rollar integratsiyasi jarayonidagi psixologik omillar.....	311
Ishboboyeva Gulbarchin Rustam qizi	
Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishda sun'iy intellekt texnologiyalarida foydalanish muammolari va yechimlari.....	315
Karshiyeva Dilnoza Utkirjonovna	
Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning metakognitiv ko'nikmalarini shakllantirishda reflektiv yondashuv	319
Laylo Baxtiyor qizi Axmedova	
1939-1945-yillarda O'zbekiston hududida qishloq xo'jaligidagi paxtachilik va oziq-ovqat muammolari	323
Mutallibjonov Boburmirzo Muzaffarovich	
Oliy ta'lim muassasalari talabalarining tajriba oxiri jismoniy tayyorgarligi darajasi dinamikasi	328
Samadov Sardor Sodiqovich	
O'zbekiston umumta'lim maktablarida mazmun va til integratsiyalashgan o'qitish (CLIL) yondashuvining pedagogik va amaliy imkoniyatlari.....	335
Tursunaliyeva Muattar Alisher qizi	
O'rta maktab 11-sinf o'quvchilarining lug'at boyligini oshirishda turli metodlarning o'rni	340
Xamzayeva Ruxshona Abdusamadovna	
Umumta'lim maktablardagi ingliz tili o'quv darsliklari tahlili	344
Xiloldinova Zulayho	
Ingliz klassik adabiyoti orqali talabalar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishning innovatsion yondashuvlari.....	348
Ziyotov Farruh Saodilla o'g'li	

UMUMTA'LIM MAKTABLARDAGI INGLIZ TILI O'QUV DARSLIKLARI TAHLILI

Xiloldinova Zulayho

Andijon davlat chet tillari instituti,
tayanch doktranti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada umumta'lim maktablarida o'qitilayotgan "Prepare Grades 8-9" o'quv darsliklarining yutuq va kamchiliklari tahlil qilingan. Shuningdek, darsliklarni baholash mezonlari haqida qo'shimcha ma'lumotlar berilgan hamda asosiy darsliklarga qo'shimcha ravishda dars jarayoniga jalb etilishi mumkin bo'lgan adabiyotlar bo'yicha fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: ingliz tili o'quv darsliklari, 8-9-sinflar, CEFR darajalari, adaptatsiya, baholash mezonlari.

Abstract: This scientific article analyzes the strengths and weaknesses of the "Prepare Grades 8-9" textbooks used in general education schools. In addition, it presents information on the criteria for evaluating textbooks and provides suggestions regarding supplementary literature that can be integrated into the teaching process alongside the main textbooks.

Key words: English language textbooks, grades 8-9, CEFR levels, adaptation, assessment criteria.

Аннотация: В данной научной статье проанализированы достоинства и недостатки учебников "Prepare Grades 8-9", используемых в общеобразовательных школах. Кроме того, представлена информация о критериях оценки учебников и предложены варианты дополнительной литературы, которую можно интегрировать в учебный процесс наряду с основными учебниками.

Ключевые слова: учебники английского языка, 8-9 классы, уровни CEFR, адаптация, критерии оценки.

KIRISH

Chet tili darslarini olib borishda o'quvchilarni mavzu bilan tanishtirish uchun o'quv materiallarining o'rni katta. Umumta'lim maktablarida barcha o'qitish manbalari ustida ishlash talab qilinadi. Chunki darslik barcha o'quvchilar uchun bir xil taqdim etiladi, ammo bu darslikdan sinfdagi har bir o'quvchi birdek manfaatdor bo'ladi, degani emas. Har bir til o'rganishga kirgan dars qatnashuvchisiga o'qituvchi tomonidan darslik mavjud yoki qo'shimcha topshiriqlar bilan adaptatsiya qilinishi talab qilinadi ^[1]. Adaptatsiya uslublarini taqdim etishdan avval umumta'lim maktablarida 1-sinfdan 11-sinf gacha bo'lgan darsliklarni va qo'shimcha manba sifatida kiritish mumkin bo'lgan o'quv materiallarini tahlil qilib chiqishimiz zarur. Ma'lumki, 2022–2023-o'quv yilidan boshlab umumta'lim maktablariga Cambridge University Press tomonidan ishlab chiqilgan ingliz tili darsliklari mahalliy lashtirilib, o'zbek tiliga tarjima qilinib, bosqichma-bosqich joriy etildi ^[2]. Ushbu maqolada esa joriy etilgan darsliklar orasidan "Prepare Grade 8-9" umumiy tahlil uchun tanlab olindi. Bu bosqichda o'quvchilar o'rtacha 14–15 yoshda bo'lishini inobatga olsak, o'quv darsliklarini o'smirlarga xos bo'lgan o'qitish tizimlari asosida joriy etish talab qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Materiallar ta'lim dasturi bilan uzviy bog'langan, yoshga mos va motivatsiyani oshiruvchi bo'lishi zarur ^[3]. Richards (2001) ta'kidlaganidek, materiallar dastur maqsadlarini amalga oshirish vositasi bo'lib, ularni ishlab chiqishda o'quvchilarning ehtiyojlari, qobiliyatlari va ijtimoiy-kognitiv rivojlanish darajasi inobatga olinishi kerak. Cunningsworth (1995) darslik tanlashda aniq mezonlar tizimini taklif qiladi: mavzuning o'quv dasturiga mosligi (relevance), til darajasiga muvofiqligi, metodik yondashuvning o'qituvchi va o'quvchilarga mosligi, til ko'nikmalarining integratsiyasi va qo'shimcha resurslarning mavjudligi. Bu mezonlar ayniqsa o'smirlar uchun muhim, chunki ular dolzarb mavzular va interaktiv topshiriqlarga ijobiy munosabat bildiradilar ^[4]. Grant (1987) esa dars-



likdan maksimal foydalanish uchun o'qituvchining uni moslashtirish (adaptatsiya) qobiliyatiga e'tibor qaratadi. O'smirlar bilan ishlashda darslikdagi mashqlarni mahalliy kontekst va o'quvchilar qiziqishlariga moslashtirish, qo'shimcha ijodiy va kommunikativ faoliyatlar kiritish samarali bo'ladi. Council of Europe (2001) tomonidan ishlab chiqilgan CEFR til darajalari tizimi materiallarning til kompetensiyalariga mosligini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. CEFRdagi "can-do" bayonotlari o'smirlarning o'z yutuqlarini aniq ko'rishiga yordam beradi, biroq vazifalar mazmunini yoshga va madaniy kontekstga moslashtirish talab etiladi ^[5]. Zamonaviy materiallar ishlab chiqishda o'quvchiga yo'naltirilganlik, real hayotiy (autentik) materiallardan foydalanish, multimediya va interaktiv topshiriqlarni joriy etish, hamda madaniy jihatdan moslashuvchanlik asosiy tamoyillar sifatida belgilanadi (Tomlinson, 2013). O'smirlar uchun materiallar loyihaviy ishlarga, ijtimoiy aloqalarni rivojlantirishga va shaxsiy identifikatsiyani qo'llab-quvvatlashga xizmat qilishi lozim. Umuman olganda, o'smirlarga ingliz tili o'qitish materiallarining samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq: o'quv dasturiga va yosh ehtiyojlariga moslik, til darajasi va CEFR standartlariga mos kelish, to'rt asosiy til ko'nikmasini integratsiyalash, interaktiv va vizual jihatdan jozibador bo'lish, hamda o'qituvchilar tomonidan mahalliy sharoitga moslashtirish imkoniyatining mavjudligi. Ushbu tamoyillarni uyg'un qo'llash O'zbekiston sharoitida o'smirlarning til o'rganish motivatsiyasi va natijalarini sezilarli darajada oshiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tahliliy yondashuv. Ushbu tadqiqotda sifatli (qualitative) baholash yondashuvi qo'llanildi. Bu yondashuv o'quv materiallarining sifatini nafaqat raqamli ko'rsatkichlar, balki mazmuniy va kontekstual jihatlar asosida baholash imkonini beradi. Baholash jarayonida tanlangan darslikdagi har bir bo'lim va mashq turlari tizimli ravishda tahlil qilinib, quyidagi mezonlar asosida baho berildi ^[6]:

1. **Level appropriateness** – CEFR darajasiga mosligi. CEFR standartlari asosida darslikdagi til materiali va vazifalarning murakkablik darajasi baholandi. Mezonga ko'ra, quyidagilar tahlil qilindi:
 - a) darslikdagi til strukturasi va lug'at hajmi CEFR darajalariga mos kelishi;
 - b) mashqlarning murakkablik darajasi va ketma-ketligi;
 - c) o'quvchining kommunikativ vaziyatlarda tilni qo'llay olishiga qaratilganlik.
2. **Skills integration** – til ko'nikmalarining integratsiyasi. Til o'qitishda tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalarining uyg'un rivojlanishi muhim hisoblanadi. Shu bois, baholashda quyidagilar e'tiborga olindi:
 - a) har bir bo'limda to'rt asosiy til ko'nikmasining qamrab olinishi;
 - b) mashqlar orasidagi mantiqiy bog'liqlik va ketma-ketlik;
 - c) real kommunikativ vaziyatlarni yaratishga qaratilgan topshiriqlar mavjudligi.
3. **Didaktik dizayn** – topshiriqlar ketma-ketligi va ko'rsatmalarning aniqligi. Darslikning didaktik tuzilishi va mashqlar dizayni o'quv jarayonining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Baholashda quyidagilar ko'rib chiqildi:
 - a) mashqlarning oddiydan murakkabga qarab ketma-ket joylashtirilganligi;
 - b) topshiriqlar bo'yicha ko'rsatmalar aniq va tushunarli bo'lishi;
 - c) o'quvchining mustaqil ishlashiga imkon beruvchi topshiriqlar ulushi.
4. **Lingvistik aniqlik** – grammatik va leksik mazmun sifatini baholash. Mazkur mezon doirasida darslikdagi grammatik qoidalar, leksik materiallar va ularning to'g'riligiga e'tibor qaratildi. Baholash quyidagi jihatlar asosida amalga oshirildi:
 - a) grammatik tushuntirishlarning aniqligi va qisqaligi;
 - b) lug'at boyligi va uning amaliy qo'llanish imkoniyati;
 - c) talaffuz bo'limlari va fonetika mashqlarining mavjudligi.
5. **Madaniy mazmun** – xalqaro va mahalliy kontekst uyg'unligi. Darslikdagi madaniy mazmunning o'quvchilarning umumiy dunyoqarashi va madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilindi. Bu mezon bo'yicha quyidagilar inobatga olindi:
 - a) ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar madaniyatiga oid materiallarning mavjudligi;
 - b) mahalliy madaniyat bilan taqqoslash imkonini beruvchi topshiriqlar;
 - c) madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantiruvchi mashqlar.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Prepare Grades 8-9” ingliz tili darsligi dastur bo'yicha CEFR A2+ darajasiga to'g'ri keladi. Darsliklarni tahlil qilish orqali quyidagi xulosalarni qilish mumkin.

Prepare 8-sinf darsligining yutuqlari:

- darslik CEFR (Common European Framework of Reference) talablariga mos ishlab chiqilgan;
- tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish kabi to'rt asosiy ko'nikmani rivojlantiradi;
- o'quvchilarni muloqotga kirishga undaydigan real hayotiy mavzular tanlangan;
- grammatik qoidalar matn asosida tushuntiriladi, bu esa ularni yaxshiroq tushunishga yordam beradi;
- har bir grammatika bo'limidan keyin amaliy mashqlar mavjud;
- har bir bo'limda tematik so'zlar jamlanmasi bor;
- lug'at boyligini oshirishga qaratilgan collocations, phrasal verbs va word formation mashqlari mavjud;
- har bir bo'lim oxirida Progress check (rivojlanish testi) mavjud.

Prepare 8-sinf darsligining kamchiliklari:

- mavzular asosan g'arbona hayot tarzi asosida tanlangan, O'zbekiston yoki mintaqaviy madaniyatni kam aks ettiradi;
- o'quvchilarning shaxsiy tajribasiga bog'lashda ba'zan qiyinchilik tug'iladi;
- ayrim bo'limlarda ko'p grammatika mashqlari berilgan, lekin gapirish yoki yozish bo'yicha amaliyot yetarli emas;
- boshqa bo'limlarda esa aksincha, gapirishga urg'u ko'proq berilib, grammatikani mustahkamlashga kam joy ajratilgan.

Prepare 9-sinf darsligining yutuqlari:

- o'quvchilar yoshiga mos dolzarb va motivatsion mavzular (texnologiya, do'stlik, kelajakdagi kasb, sog'lom turmush) keltirilgan;
- muloqotga kirishishni rag'batlantiradi, interaktiv topshiriqlar orqali fikr bildirishga undaydi;
- har bir dars listening, speaking, reading, writing bo'yicha mustahkam ko'nikmalar beradi;
- speaking bank va writing guide bo'limlari o'quvchilarning ijodiy fikrlashiga yordam beradi;
- har darsda target vocabulary va grammar point ko'rsatilgan;
- wordlist bo'limida barcha lug'atlar to'plangan, dictionary skills ham o'rgatiladi;
- kitob bilan birga audio, video, interaktiv online workbook, self-check testlar taqdim etiladi.

Prepare 9-sinf darsligining kamchiliklari:

- writing bo'limlari mavjud bo'lsa-da, ba'zan shablonlar va strukturali ko'rsatmalar yetarli emas;
- darslik mustaqil yozma ish uchun ko'proq o'qituvchi ko'magini talab qiladi;
- listening bo'limidagi ba'zi matnlar tezligi va aksenti tufayli tushunishga og'ir kechadi;
- guruhda kuchli va sust o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlash uchun darslikda turli darajadagi topshiriqlar yetarli emas.

Umumta'lim maktablarida darsliklarni o'qitish jarayonida o'quvchilarning bilim darajasi bir-biridan farq qilishi mumkin. Shu bois, o'qituvchilar chet el darsliklarini qo'shimcha metodik vosita sifatida jalb etish orqali dars samaradorligini oshirishlari mumkin. Bu yerda ayniqsa English File va Headway kabi jahon miqyosida keng tan olingan, tajribali nashriyotlar – Oxford University Press tomonidan ishlab chiqilgan darsliklar katta ahamiyatga ega. English File darsligi o'zining kommunikativ yondashuvga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Har bir bo'lim o'quvchining gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozish ko'nikmalarini muvozanatli rivojlantirishga qaratilgan.



Bu darsliklar CEFR tizimining barcha bosqichlarini – A1 dan C1 gacha – to'liq qamrab oladi (Latham-Koenig, C. & Oxenden, C., 2019). Ushbu darsliklar quyidagi afzalliklari bilan ajralib turadi:

- CEFR tizimiga to'liq mosligi: o'quvchilarning til darajasini bosqichma-bosqich A1 dan C1 gacha olib chiqish imkonini beradi.
- Kommunikativ yondashuv asosida tuzilganligi: tilni real hayotiy vaziyatlarda qo'llashga o'rgatadi.
- Boy multimedia resurslari: audio, video, interaktiv mashqlar orqali darslarni jonlantiradi.
- Differensial yondashuv imkoniyati: turli darajadagi o'quvchilar bilan individual ishlash uchun moslashuvchanlik yaratadi.
- Mustaqil ta'limga rag'batlantiruvchi metodika: o'quvchilarni faollikka undaydi, ularning mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Shu sababli, ingliz tili darslarini faqat mahalliy darsliklar asosida olib borish o'rniga, ularni xorijiy darsliklar bilan uzviy va maqsadli qo'shib olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu nafaqat o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishini oshiradi, balki o'zlashtirish darajasini xalqaro standartlarga yaqinlashtiradi. Ayniqsa, yuqori sinf o'quvchilarini xalqaro imtihonlarga tayyorlanayotgan yoshlarni samarali tayyorlashda bu yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, bu darsliklarni to'liq asosiy manbaga aylantirish emas, balki qo'shimcha (supporting/supplementary) vosita sifatida integratsiya qilish ta'limdagi milliylik va xalqaro tajriba uyg'unligini ta'minlaydi. O'qituvchilar chet el darsliklaridan individual mashg'ulotlarda, guruhlar bo'yicha ishlashda, differensial yondashuv asosida yoki mustaqil ta'lim uchun qo'llash orqali darsni boyitishlari mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umumiy qilib aytganda, mahalliy o'quv darsliklari albatta o'quvchilarning chet tili bilim darajasini ma'lum bir bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi. Chunki, yuqorida ta'kidlanganidek, ushbu qo'llanmalar o'quvchilarga chet tilini o'qitishda grammatik tuzilmalari ustida ishlashdan tortib, til ko'nikmalarini rivojlantirishgacha qator afzallik jihatlariga ega. Ammo sinfdagi barcha o'quvchilar birdek qiziqish va bilim darajasiga ega emasligini inobatga olsak, aksariyat hollarda o'qituvchidan samarali metodlar asosida yangi qo'shimcha darsliklarni ham kiritish maqsadga muvofiqdir. Bu orqali o'quvchilarni son va sifat jihatidan dars jarayoniga jalb qilish ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshishiga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Council of Europe. (2001). Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Cambridge University Press.
2. Cunningsworth, A. (1995). Choosing Your Coursebook. Heinemann.
3. Grant, N. (1987). Making the Most of Your Textbook. Longman.
4. Richards, J. C. (2001). Curriculum Development in Language Teaching. Cambridge University Press.
5. Tomlinson, B. (2013). Developing Materials for Language Teaching. Bloomsbury Academic.
6. Latham-Koenig, C., & Oxenden, C. (2019). English File (Third Edition). Oxford University Press.
7. Soars, J., & Soars, L. (2015). New Headway (Fourth Edition). Oxford University Press.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.